SURXONDARYO VILOYATINING TEXNOGEN HUDUDLARI SHAROITIDAGI SIGIRLARDA THYROID PATHOLOGIYANING OLDINI OLISH

Yunusov Xudaynazar Beknazarovich

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar Universiteti rektori, b.f.d., professor;

Bakirov Baxtiyor

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti, v.f.d., professor;

Abdullayev Baxtiyor Ismatovich.,

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti, mustaqil tadqiqotchi;

abdullaevbaxtiyor46@gmail.com

https://orcid.org/0009-0009-9932-6580

Annotatsiya. Maqolada O‘zbekiston Respublikasining Surxondaryo viloyati sharoitlaridagi sigirlarda yod tanqisligi patologiyasining etiologiyasida hududning texnogen ifloslanishining qalqonsimon bez patologiyasida tutgan o’rni, yod tanqisligi simptomatikasida hayvonning gavda tuzilishi, jun qoplami, mahsuldorligi va pushtdorlik ko‘rsatkichlari bo‘yicha ro‘y beradigan o‘ziga xos klinik belgilar, shuningdek ushbu patologiyaning guruhli profi laktikasida tarkibidagi yod miqdori 20% ga oshirilgan qo‘shimcha yodlangan osh tuzi, natriy bikarbonat, magniy sulfat va multivit + minerallar va Miosta-H preparatlarini qo‘llash samaradorligini aniqashga qaratilgan tajriba natijalarining tahlli berilgan.

Аннотация. В статье представлен анализ результатов экспериментальных исследований по обоснованию роли техногенных факторов в этиологии патологии йодной недостаточности; специфических симптомов, основанных на своеобразных изменений строения тела животного, кожного покрова, продуктивности и репродуктивности, а также эффективности

применения йодированной поваренной соли дополнительно обогащенной йодом на 20% а также натрия бикарбонат, магния сульфат, мултивит+минералы и Miosta-H при профилактике йодной недостаточности у коров в техногенных условиях Сурхандаринской области Республики Узбекистан.

Abstract. The article analyzes the role of the endemic characteristics of the region and texnogen factors of the Republic of Uzbekistan, clinical signs that occur in the symptoms and body structure of the animal, wool cover, productivity and fertility indicators, as well as the results of an experiment aimed at determining the effectiveness of using additional iodized table salt, sodium bicarbonate, magnesium sulfate and multivit + minerals and Miosta-H preparations in group prophylaxis of this pathology.

Kalit so‘zlar. Sigir. Yod tanqisligi. Tiroidal patologiya. Endemik bo‘qoq. TSG. T3. T4. Gavdaning ovalsimon shaklga kirishi. Allopetsiya. Yolg`on kokil. Yolg`on yol. Guruhli profi laktik davolash. Tarkibidagi yod miqdori 20% ga oshirilgan qo‘shimcha yodlangan osh tuzi. natriy bikarbonat, magniy sulfat va multivit + minerallar va Miosta-H.

Ключевые слова. Корова. Йодная недостаточность. Тироидальная патология, Эндемический зоб. ТСГ. Т3. Т4. Овальность телосложения. Алопеция. Ложные гривы. Ложные брови. Групповая профилактическая терапия. Йодированная поваренная соль дополнительно обогащенная йодом на 20%. натрия бикарбонат, магния сульфат, мултивит+минералы и Miosta-H

Keywords. Cow. Iodine deficiency. Thyroid pathology. Endemic goiter. TSG. T3. T4. Ovalization of the body. Al lopecia. False coccyx. False iliac crest. Group prophylactic treatment. Additional iodized table salt with an increased iodine content of 20%. sodium bicarbonate, magnesium sulfate and multivit + minerals and Miosta-H.

Mavzuning dolzarbligi. Bugungi kunda yod tanqisligi patologiyalari dunyo bo’yicha odamlar va hayvonlar orasida kun sayin avj olib bormoqda. Dunyo hayvonlar sog`ligini saqlash tashkilotining qarori bilan 2001 yildan e’tiboran

O‘zbekiston Respublikasining barcha hududlari yod yetishmaydigan endemik hududlar qatoriga kiritildi. Tibbiy tadqiqotlarga ko‘ra, bir odamga bir kunda kamida o‘rtacha 100 mkg yod to‘g`ri kelishi kerak. Aholi orasida yodlangan osh tuzining keng ko‘lamda iste’mol qilinishiga qaramasdan bu ko‘rsatkich Respublikamizda 50 mkg dan oshmaydi. Ushbu patologiyalar gipoterioz, endik boqoq kabi og`ir kasalliklar ko’rinishida chorva mollari, shu jumladan respublikamizga chetdan olib kelinayotgan zotli qoramol va undan olinayotgan avlodning o’sish va rivojlanishi, ulardan olinadigan mahsulot sifati va miqdori, shuningdek pushtdorlik ko’rsatkichlariga salbiy ta’sir ko’rsatib kelmoqda va keyingi yillarda respublikamiz rahbariyati tomonidan amalga oshiriayotgan agrar islohatlarning borishida tosqinlik qilib kelmoqda.

Keyingi yillarda olib borilgan tadqiqotlar natijalari shuni ko’rsatdiki, hayvonlarda yod tanqisligi patologiyasining kechishida tashqi muhit omillari, xususan, tuproqning sho’rlanish darajasi, atmosfera havosining zararli gazlrr va ayrim texnogen omillar bilan ifloslanish darajasi ham o’ziga xos ahamiyat kasb etadi.

Oz-o’zidan ma’lumki, bunday holat soha mutaxassislari va ilm ahli oldiga bu borada tizimli nazoratni yo‘lga qo‘yish bilan birgalikda texnogen hududlar sharoitlarida parvarishlanayotgan zotli qoramollarda ham yod tanqisligi patologiyalarining tabiatini o’rganish asosida ushbu patologiyaning ilmiy asoslangan oldini olish chora-tadbirlari majmuyini ishab chiqishni vazifasini qo’yadi.

Tadqiqotning maqsadi O‘zbekistonning texnogen hudud hisobangan surxondaryo viloyati sharoitidagi mahsuldor sigirlarda yod tanqisligi patologiyasining etiopatogenetik, simptomatik hamda profi laktik asoslarini ishlab chiqishdan iborat bo’ldi.

lmiy tadqiqot ishlari 2021-2026 yillar davomida Surxondaryo viloyatining Angor va Sariosiyo tumanlari fermer xo’jaliklari sharoitlaridagi sigirlarda olib borildi. Tadqiqotlarda dispanserlash, profilaktik vositalarni tayyorlash, o‘xshash juftliklar va guruhli profilaktika tamoyillaridan va umum qabul qilingan zamonaviy klinik hamda laborator tekshirish usullardan foydalanildi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, tekshirish olib borilgan Surxondaryo viloyati sharoitida sigirlar orasida ratsion to‘yimsizligi negizida tiroid patologiyalari bilan birgalikda rux yetishmovchiligi patologiyasi, kaltsiyning ortiqchaligi, mis va kobalt yetishmovchiligi, tuproq sho‘rlanishi hamda ftorli toksikoz holatlari kuzatildi. Sigirlarning Tiroid patologiya bilan zararlanish darajasi ortacha 20-45% ni tashkil etdi.

Kasallik paytida sigir gavdasining o‘ziga xos ovalsimon shaklga kirishi, o‘sishdan qolish, terida qattiq burmalarning paydo bo‘lishi, jun qoplamining xiralashishi, dag‘allashishi va alopesiyalari, «yolg‘on kokil» va «yolg‘on yollar»ning paydo bo‘lishi, qalqonsimon bezning hajmiga kattalshishi, oshqozonodi bo‘limlarining gipo va atoniyasi, shilliq pardalarning oqarishi belgilari, shuningdek, sigirlarning qisir qolishi yoki hayotchanligi past buzoqning tug`ilishi kabi belgo va asoratlar kuzatiladi.

Qonda eritrotsitlarning o‘rtacha 4,8±0,04 mln/mkl, gemoglobinning 90,0±3 g/l, umumiy oqsilning 51,1±2,5 g/l, glyukozaning 1,8±0,01 mmol/l, umumiy kalsiyning 1,92±0,02 mmol/l, anorganik fosforning 1,25±0,01 mmol/l, tiroksin (T4) ning 2,2±0,05 mkg/dl gacha pasayishi, shuningdek, bilirubinnng 0,62±0,01 mkol/l, AST ning 0,45± 0,02 mkmol/s.ml, ALTning 0,90±0,01 mkmol/s.ml va TTG ning 5,8±0,09 mkME/dl gacha oshishi kuzatiladi.

Profilaktik maqsadda zotli sigirlarga bug‘ozlikning 5-7 oylari davomida (90 kun) kuniga 50 g dan tarkibidagi yod miqdori 20% ga oshirilga qo‘shimcha yodlangan osh tuzi va 20 g dan natriy bikarbonatni omixta yemga aralashtirilgan holda berish, 20 ml dan Multivit plyus minerallar preparatini suvda suyultirilgan holda ichirish, har oyning boshida uch kun davomida kuniga bir martadan 100 ml miqdoridagi magniy sulfat tuzini 2,5 litr suvda eritilgan holda ichirish va har 30 kunda bir martadan jami 3 marta 2,5 ml dan Miosta-H preparatini muskul orasiga yuborishga asoslangan guruhli profilaktik majmuani qo‘llash texnogen tabiatl yod tanqislgi patologiyasining klinik begilarining bartaraf etilishiga boshqa profiaktik variantlarga qaraganda sezilarli ijobiy ozgarishlarni namoyon etishi aniqlandi. Xususan, ushbu guruhli

profilaktik majmuani qo'llash qondagi eritrotsitlarning 17%, gemoglobinning 16,1% ga, umumiy oqsilning 20,6% ga, glyukozaning 26,0% ga, umuniy kaltsiynng 48,5% ga, anorganik fosforning 34,5% ga va tiroksin (T4)ning 50,0% ga oshishi, shuningdek, ishqoriy fosfataza faolligining 42,0% ga, TTG faolligining 45,6% ga pasayishi orqali sigir organizmidagi buzilgan biokimyoviy va fi ziologik jaroyonlarning tiklanishini ta'minlashi aniqlandi.

Ishlab chiqilgan guruhli profilaktik majmuani qo'llash zotli sigirlardan sog`ib olinadigan o'rtacha kunlik sut miqdorini 13,6%, har 100 bosh sigir hi sobiga olinadigan buzoq sonini 5%, yangi tug`ilgan buzoqlar o'rtacha tirik vaznini 5,5%, buzoqlarning bir yoshgacha davrdagi tirik vaznining o'rtacha kunlik o'sishini 23,7% va buzoqlarning saqlanuvchanligini 8% ga oshirish imkonini berishi tadqiqotlarda aniqlandi.

Xulosa. Ftorli texnogen hududlar sharoitdagi sigirlarda yod tanqisligi patologiyasining oldini olish uchun laktatsiyaning beshinchi oyidan boshlab 60-90 kun davomida ratsion to'yimliligini ta'minlash negizida sigirlarga tarkibidagi yod miqdori 20% ga oshirilgan yodlangan tuz, natriy bikarbonat, magniy sulfat, multivit + minerallar va Miosta-H preparatlarini belgilangan tartib va miqdorlarda ishlatishga asoslangan guruhli profilaktik majmuani qo'llash tavsiya eiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Кондрахин И.П., Левченко В.И. Диагностика и терапия внутренних болезней живот-ных. М.: Изд. ООО «Аквариум-Принт», 2005. С. 652-664.2.Методы ветеринарной клинической лабо-раторной диагностики: Справочник / Под ред. проф. И. П. Кондрахина. - М.: Колос С, 2004.

2. Норбоев Қ.Н., Бакиров Б.Б., Рўзиқулов Н.Б.. Ички юқумсиз касалликлар. Дарслик. Самарқанд, 2025. 416Б.

3. Риш М.А, Назаров Ш.Н., Рудяк Т.Н. Геохи-мия микроэлементов в ландшафте долины реки Зарафшан //Микроэлементы в биологии и их применение в сельском хозяйстве и медицине: Тез. докл. XI Всесоюз.конф. Самарканд, 1990. С. 73-74.

4. Уразаев Е.А. Энзоотическая остеодистрофия крупного рогатого скота. Казань 2005. http: // www.S ka.ru/15/2692/1.htmi.

5. Bustamante J.J., Alonso M., et al. Relationship between Vitamin B12 and Cobalt Metabolism in Domestic Ruminants: An Update // Animals.– 2020. – Vol.10(10). – P.1–15. – DOI: 10.3390/ani10101928.